

NIZOLARNI MUQOBIL HAL ETISHDA LEGAL TECH

Obidova Layli Amirjon qizi

laylixonobidova31@gmail.com

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 1-kurs A-patok 1-guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17785651>**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada nizolarni muqobil hal etish (NMQ) jarayonida legal tech texnologiyalarining o'rni va ahamiyati yoritilgan. Muallif mediatsiya, arbitraj va xolis baholash kabi NMQ shakllarini tahlil qiladi hamda ularning raqamlashtirilishi natijasida yuzaga kelayotgan yangiliklar, samaradorlik, afzalliklar va mavjud cheklovlarni ko'rib chiqadi. Xalqaro tajriba asosida onlayn nizolarni hal qilish (ONH) platformalarining rivoji, ularning texnik imkoniyatlari, xavfsizlik muammolari va qo'llanish doiralari tahlil etiladi. Shuningdek, O'zbekistonda NMQ va ONH tizimlarini takomillashtirish bo'yicha so'nggi islohotlar, jumladan TIAC va e-sud tizimi misolida amaliy jarayonlar ko'rib chiqilgan. Maqola yakunida legal techning afzalliklari bilan birga, sun'iy intellektning huquqiy javobgarlikdagi mavhum jihatlari kabi muhim muammolar bo'yicha xulosalar beriladi.

KALIT SO'ZLAR

Legal Tech, nizolarni muqobil hal etish, mediatsiya, arbitraj, xolis baholash, onlayn nizolarni hal qilish, sun'iy intellekt, ODR, e-sud, TIAC, raqamlashtirish, axborot xavfsizligi.

KIRISH

Texnologiyalar asri bo'lgan 21-asrda texnik vositalardan foydalanmaydigan soha deyarli qolmagan. Asrlar davomida ananaviy usullariga tayangan yuridik sohadam ham raqamli texnologiyalardan foydalanish o'tkan asrning 60-yillaridan boshlandi va bu jarayon umumiy nom bilan "legal tech" deb nomlanadi. 2023-yilgi World Justice Project ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda dunyo bo'ylab sud tizimlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish 68%ni tashkil etgan ekan. Bu esa legal techning shiddat bilan o'sib borayotganini ko'rsatadi. Huquq sohasining yana bir tarmog'i nizolarni muqobil hal etish (NMQ)dir. Unda tomonlar o'z muammolarini sudga murojaat qilmasdan hal qilishadi. Bugungi kunda legal tech tufayli bu soha ham raqamlashtirilgan. Bu esa insonlarning ishini tez, samarali va arzon bajarilishiga olib keladi. Foydali jihatlari bilan bir qatorda, legal techning nizolarni muqobil hal etishda ayrim salbiy tomonlari ham mavjud. Ularga mijozlarning shaxsiy ma'lumotlarini saqlashdagi xavf va tizimdagi texnik nosozliklar tufayli yuzaga keladigan muammolarni kiritish mumkin. Ushbu esseda legal techning nizolarni muqobil hal etishda foydali va salbiy jihatlari tahlil qilaman.

Nizolarni muqobil hal etish (NMQ) deganda, kelishmovchiliklarni sudga murojaat qilmasdan hal etishning turli usullari tushuniladi. ADRning eng keng tarqalgan uch turi mavjud: mediatsiya (mediation), arbitraj (arbitration) va xolis baholash (neutral evaluation). O'zbekistonda MNHning huquqiy asosi 2018-yil 3- iyuldagi № ZRU-482 "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonun bilan yaratilgan bo'lib, u 2019-yil 1-yanvardan kuchga kirgan.

- Arbitrajda xolis shaxs (arbitrator) tomonlarning fikrlarini tinglaydi va yakuniy, majburiy kuchga ega bo'lgan qarorni chiqaradi.
- Mediatsiyada esa xolis vositachi (mediator) tomonlarga o'zaro kelishuvga erishishda yordam beradi.

Xolis baholashda esa shu sohada tajribaga ega bo'lgan mutaxassis ikki tomonning dalillarini tinglab, qaysi tomonning ishi kuchliroq ekanini va sudda g'alaba qozonish ehtimoli kimda yuqoriligini baholaydi.

NMQ orqali tomonlar o'z ishlarini tez va o'zaro kelishuv asosida hal qiladi, ortiqcha pul sarflamaydi va sudlarga tushadigan yuk ham kamayadi. Biroq, nizolarni muqobil hal etishning salbiy jihatlari ham mavjud. Masalan, mediatsiyada ixtiyorilik prinsipiga ko'ra, tomonlar istasa kelishuvga erishadi. Ularni yarashishga majburlash taqiqlanadi. Muzokaralarda taraflardan biri kuchliroq bo'lib, boshqasiga bosim o'tkazishi mumkin va bu notenglikni keltirib chiqaradi. Shuningdek, jiddiy ishlar, masalan, jinoyat yoki yirik huquqiy muammolarda NMQ usullarini qo'llab bo'lmaydi.

NMQda inson omilining ahamiyati ham katta. An'anaviy sud jarayonlaridan farqli o'laroq, mediatsiya va muzokaralarda taraflar o'zaro kelishadi va byurokratiya qisqaradi. Sud tizimidagidek murakkab jarayonlar mavjud emas. Biroq, bu tizimning muammolari ham mavjud: mediator yoki hakamning tajribasizligi noto'g'ri qaror qabul qilinishiga sabab bo'lishi mumkin.

Legal Tech bu "legal services" (huquqiy xizmatlar) va "technology" (texnologiya) tushunchalarining birlashmasi hisoblanadi. Oddiy qilib aytganda, Legal Tech deganda huquqiy xizmatlarni texnologiyalardan foydalangan holda sifatli, tezkor va samarali bajarish tushuniladi. Yevropada birinchi marta 2015-yil sentyabrda Martin Bues Legal Techga quyidagicha ta'rif bergan: "Raqamli axborot texnologiyalaridan foydalangan holda huquqiy jarayonlarni avtomatlashtirish, soddalashtirish va yaxshilash (masalan, qonunlarni izlash, qo'llash, davlat organlariga murojaat qilish)." Tatqiqotchi Ryan Whalen esa Legal techni "huquq amaliyotida qo'llaniladigan barcha texnologik vositalar va ularni qo'llash usullari majmui" deb ta'riflaydi.

Legal Techning turli xil yo'nalishlari mavjud:

1. Ma'lumotlarni raqamlashtirish. Bunda hujjatlar, shartnomalar va sud hujjatlari skaner qilinib, elektron shaklga keltiriladi.

2. Avtomatlashtirish. Kompyuter dasturlari ayrim ishlarni o'zi bajaradi. Masalan, sun'iy intellekt shartnoma tuzish uchun tayyor huquqiy shablonlardan foydalanadi.

3. Onlayn platformalar orqali nizolarni hal qilish. Tomonlar internet orqali nizolarini sudga bormasdan hal qilishi mumkin.

3. Prognozlash (legal analytics). Sun'iy intellekt sud ma'lumotlarini tahlil qilib, qaysi tomonning yutish ehtimoli yuqoriligini taxmin qiladi.

Onlayn nizolarni hal etish (ONH) bu nizolarni muqobil hal etish (ADR)ning zamonaviy shakli bo'lib, nizolarni sudga bormasdan, internet platformalari orqali hal etish tizimidir. ONHda tomonlar an'anaviy NMQda bo'lgani kabi bir joyda uchrashishlari shart emas. Ular videokonferensiyalar, veb-platformalar yoki elektron pochta orqali muzokaralar olib borishlari, hujjatlarni almashishlari va qarorlarni amalga oshirishlari mumkin.

ONHning uchta asosiy turi mavjud:

1. Onlayn mediatsiya bunda mediator internet orqali tomonlarning kelishuvga erishishiga yordam beradi.
2. Onlayn arbitraj bunda hakam masofadan turib tomonlar keltirgan dalillarni o'rganadi va qaror chiqaradi.

3. Avtomatlashtirilgan muzokara bunda sun'iy intellekt yoki maxsus dasturlar tomonidan avtomatik yechim taklif etiladi.

ONQning asosiy afzalliklari tezkorlik, xarajatlarning pastligi, geografik to'siqlarning yo'qligi va inson omilidan kelib chiqadigan adolatsizlik holatlarini kamaytirishdir. Biroq, ONHning muammolari ham mavjud.

Yevropa Ittifoqining ODR bo'yicha rezolyutsiyasiga ko'ra (Regulation (EU) No 524/2013), ushbu tizimda ham texnik nosozliklar, foydalanuvchilarni onlayn identifikatsiya qilishdagi qiyinchiliklar, shuningdek shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi bilan bog'liq muammolar kuzatildi. 2025-yil 20-iyulda Yevropa bu platformani kam foydalanilgani uchun yopdi va yangi platforma ishlab chiqarishini e'lon qildi.

Dunyoning ko'plab mamlakatlari ONH platformalarini o'z tajribalaridan o'tkazib, ularning samaradorligini allaqachon sezishgan. OECD hisobotiga ko'ra, 2021-yilda onlayn nizolarni hal qilish platformalarining qo'llanilish darajasi Osiyoda 35%ga, Yevropada esa 65%ga oshgan. Bu ODR texnologiyalarining global miqyosda ommalashib borayotganini bildiradi. Xususan, Gongkongdagi eBRAM Xalqaro Onlayn Nizolarni Hal Qilish Markazi bunga yorqin misoldir. Ushbu markaz sun'iy intellekt, blokcheyn va aqlli (smart) kontrakt kabi eng zamonaviy texnologiyalardan foydalanadi. Tomonlar da'voni elektron shaklda yuborib, muzokarani boshlashadi. Smart kontraktlar orqali barcha jarayonlar blokcheynda qayd etiladi va yakuniy qaror elektron tarzda chiqariladi. Bu platformaning afzalliklari shundan iboratki, jarayon shaffof o'tadi va ma'lumotlar xavfsiz tarzda blokcheynda saqlanadi. Singapur esa Osiyoning ODR bo'yicha markazi sifatida e'tirof etiladi. Singapur Meditatsiya Markazi (Singapore Mediation Centre) o'zining pilot loyihalari sifatida SMC Online Mediation va IMDA ADR Scheme platformalarini yaratgan. Ushbu platformalarda videokonferensiyalar, elektron imzo, xavfsiz chat va integratsiyalashtirilgan ma'lumotlar bazasi kabi texnologiyalardan foydalaniladi. O'zbekistonda ham NMQ va ONH sohalarida bir qator yangi ishlar amalga oshirildi. Xususan, WIPO Arbitration and Mediation Center bilan Adliya vazirligining hamkorligi yo'lga qo'yildi hamda **e-sud.uz** elektron tizimi ishga tushirildi. Fuqarolarimiz hozirda e-sud.uz tizimi orqali sudlarga arizalarini onlayn yuborishlari va sud jarayonlarini videokonferensiyalar orqali kuzatib borish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Eng katta islohotlardan biri Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2018-yildagi PQ-4001-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Savdo-Sanoat palatasi huzurida Toshkent Xalqaro Arbitraj markazini (TIAC) tashkil etilishi hisoblanadi. Ushbu qarorda TIACning asosiy vazifalari, qaysi tillarda ish yurituv olib borishligi va o'zbek fuqarolari bilan birgalikda tajribali xorijiy arbitrlarni jalb etish vazifalari belgilab qo'yilgan. Hozirgi kunda ushbu markaz toq sondagi doimiy arbitrlardan iborat bo'lib, ularning 20% gacha O'zbek fuqarolari tashkil etishi mumkin. Legal tech va onlayn nizolarni hal qilish tizimlarining bir qator foydali jihatlaridan tashqari, ularning salbiy tomonlari ham mavjud. Bunday tizimlarda katta hajmdagi shaxsiy va yuridik ma'lumotlar to'planadi. Masalan, guvoh bayonotlari, shartnomalar shartlari, sud hujjatlari, moliyaviy ma'lumotlar va boshqalar. Agar bu turdagi ma'lumotlar o'g'irlanadigan yoki noto'g'ri qo'llaniladigan bo'lsa, u fuqarolarga va tashkilotlarga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Xuddi shunga o'xshash voqea Kanadada ham yuz bergandi. 2021-yilning mart oyida, Kanadaning Britaniya Kolumbiyasi provinsiyasidagi Civil Resolution Tribunal (CRT) platformasida ma'lumotlar sizishi (data breach) holati yuz bergan. CRT foydalanuvchilari platforma orqali ariza berayotganda boshqa foydalanuvchilarning ariza fayllarini ba'zi hollarda esa hujjatlarni ko'rib qolishgan. Bunga sabab

qilib server sozlamalaridagi xatolik va autentifikatsiya tizimidagi texnik nosozliklar sabab bo'lgan. Shu sababli kompaniyalar axborot xavfsizligi choralarini kuchaytirishlari, hamda autentifikatsiya tizimlarini joriy etishlari zarur. Ko'pchilikni xavotirga solayotgan yana bir muammo bu sun'iy intellekt tomonidan berilgan qarorlarning ishonchligi va huquqiy javobgarligi masalasidir. Sun'iy intellekt yoki chatbotlar tomonidan bildirilgan javoblar yoki muzokaralarda ularni qo'llash har doim ham to'g'ri natija bermasligi mumkin. Ba'zi hollarda sun'iy intellekt ayrim masalalarga aniq javob topa olmasligi mumkin. Shunda u o'zidagi ma'lumotlarga tayanib yangi javob generatsiya qiladi, ammo bu javob ko'p hollarda xato hisoblanadi. Agar sun'iy intellekt tomonidan berilgan noto'g'ri javob natijasida mijozlarning huquqlari buzilsa yoki ularga zarar yetkazilsa, huquqiy javobgarlik kimga yuklanadi? degan savol juda ham dolzarb. Chunki sun'iy intellektning o'zi huquq subyekti emas, shu bois uni bevosita javobgar qilishning iloji yo'q.

Legal tech an'anaviy nizolarni muqobil hal etish jarayonida insonlarga bir qator yengilliklar yaratdi. Legal tech yordamida insonlar endilikda oddiy va kichik nizolarni, masalan, qarz shartnomasi yoki oldi-berdi shartnomasi bo'yicha kelishmovchiliklarni ham onlayn platformalar orqali hal etish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bundan tashqari, legal tech orqali insonlar vaqtlari hamda mablag'larini tejamoqdalar. Endi ular muammolarini hal etish uchun boshqa shaharlardan yoki hatto boshqa davlatlardan ofislarga borish uchun vaqt va mablag' sarflashga majbur emaslar. Texnologiya hayotimizning ko'plab jihatlarini yengillashtirdi, biroq u hali insonni to'liq o'rnini bosish darajasiga yetgani yo'q. Inson sun'iy intellekt orqali tarixda birinchi marta o'zidan ham ko'proq ma'lumotni biladigan va qayta ishlay oladigan idrokni yaratdi, ammo bu "idrok"da his-tuyg'u, ong va kutilmagan muammolarga yechim topish kabi insoniy sifatlar hali mavjud emas. Balki kelajakda bu jihatlar rivojlanib, mavjud bo'lar, lekin hozircha sun'iy intellekt faqat o'ziga kiritilgan dastur va ma'lumotlar asosida ishlay oladi. Agar tizim dasturiga kiritilmagan vazifani bajarish so'ralsa, u o'z chegarasidan chiqib, xatolikka yo'l qo'yishi mumkin. Shu sababli, hozircha biz sun'iy intellektni sudya, advokat yoki prokuror kabi inson tafakkuri, his-tuyg'usi va adolat hissi talab qilinadigan kasblarda to'liq foydalana olmaymiz.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. <https://lex.uz/docs/-3805227>
2. Dariusz Szostek | Mariusz Załucki (eds.) Legal Tech Information technology tools in the administration of justice 2021 Nomos p.19
3. Whalen, R. (2022). *Defining Legal Technology and Its Implications. International Journal of Law and Information Technology*
4. Verma, D., Banwari, A., & Pande, N. (2018). Online Dispute Resolution. InTech. doi: 10.5772/intechopen.76032
5. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). (2021). *Digital Transformation in Justice Systems*. Paris: OECD Publishing.
6. <https://www.deacons.com/2019/04/25/ebam-changing-the-way-we-do-adr/>
7. Updates from the 'Fifth Phase' of ODR: The Singapore and APEC Experience By Janet C Checkley, Technical Lead Singapore International Dispute Resolution Academy
8. <https://lex.uz/docs/-4039515>
9. <https://www.tiac.uz/about-tiac-court-of-arbitration>

10. Salter, S., & Thompson, D. Public-Centred Civil Justice Redesign: a case study of the British Columbia Civil Resolution Tribunal

